



Tadqiqot.uz



**“XXI АСРДА ИЛМ-ФАН ТАРАҚҚИЁТИНИНГ
РИВОЖЛАНИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ ВА УЛАРДА
ИННОВАЦИЯЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИ” МАВЗУСИДАГИ
РЕСПУБЛИКА ИЛМИЙ 11-ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯСИ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

2019 30 ДЕКАБРЬ
ЎЗБЕКИСТОН

Google
scholar

Crossref

ORCID
Connecting Research
and Researchers

doi

МУНДАРИЖА \ СОДЕРЖАНИЕ \ CONTENT

37. Qushnazarova Mashxura Toshmatovna YOZMA NUTQ SAVODXONLIGINI HOZIRGI KUNDAGI O'RNI.....	146
38. Raximova Umida, ONA TILI DARSLARIDA ZAMONAVIY TA'LIM BERISH MASALALARI.....	148
39. Raxmatova Gavhar Abdullayevna, O'ZBEK TILIGA DAVLAT TILI MAQOMI BERILISHINING AHAMIYATI.....	150
40. Sadulloyeva Shokhruxa, APPLYING INNOVATIVE METHODS INTO ENGLISH LEARNING CLASSROOM.....	152
41. Sattarova Nasiba Azamatovna READING STRATEGIES IN DEVELOPING READING SKILL IN ESP CLASSES.....	154
42. Shermatova Bahoroy "ZAMON" KONSEPTINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI.....	156
43. Sidiqova Shahodat Istamovna, NAVOIY ASARLARIDA TASAVVUF MASALALARINING YORITILISHI.....	158
44. O. Soliyeva MUHAMMAD NIYOZ NISHOTIY ASARLARINING QO'LYOZMA MANBALARI.....	160
45. Tashmuxeimedova (Azimova) Dildora Aziz qizi XITOIY VA O'ZBEK TILLARIDA UNDOV SO'ZLARINING TURKUMGA XOSLIK MASALASI.....	162
46. Tursunova Aziza, NAVOIY IJODINI MAKTABDAN VA SINFDAN TASHQARI JARAYONLARDA O'RGATISH.....	164
47. Tursunova Dilorom Xoshimjon qizi NUTQ ODOBIGA DOIR PAREMALARNING STILISTIK FUNKSIYALARI.....	166
48. Ubaydullayeva Xolida, Abdullayeva Gulruh SOMATIK FRAZELOGIZMLAR ("OYOQ" KOMPONENTLI FRAZEMALAR MISOLIDA).....	168
49. Ulug'ova Munavvar Toshpo'latovna NAVOIY RUBOIYLARINING TARBIVAVIY AHAMIYATI.....	170
50. Uralova Dilnoza Xasanovna, ONA TILI DARSLARIDA UYGA VAZIFA BERISH, TEKSHIRISH VA BAHOLASH SHAKLLARI.....	172
51. Urunova Manzura Egamberdiyevna, BENEFITS OF USING SHORT STORIES IN TEACHING SPEAKING.....	174
52. Mohinur Xamidova SHUHRAT LIRIKASIDA -LAR KO'PLIK AFFIKSINING STILISTIK XUSUSIYATLARI.....	176
53. Haydarova Lutfixon KITOBXONLIK MADANIYATINI YUKSALTIRISH.....	178
54. Xudoyqulova Inobat, ABDULHAMID SULAYMON O'G'LI CHO'LPOI IJODINI O'RGANISHDA INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANISH.....	180
55. Xudoyqulova Matluba Jumaqulovna, HAZRAT NAVOIY UMMONIGA BIR NAZAR.....	182
56. ЗУХРА ЁКУБОВА ЧЕТ ТИЛЛАРИНИ ЎҚИТИШ МЕТОДИКАСИДА ЛОТИН ТИЛИНИНГ ЎРНИ.....	183
57. Zikriyeva Shakhnoza Bobonazarovna, EFFICIENCY OF USING EDUCATIONAL GAMES IN TEACHING FL.....	185
58. Zoyirova Go'zal Ne'matovna HAJVIY SHE'RLARNING BADIY TAHLILI.....	187
59. Абдуллаева Рохила Юсуфжон кизи ХАРАКТЕР ХУСУСИЯТЛАРИГА ИШОРА ҚИЛУВЧИ ТАБИАТ ҲОДИСАЛАРИ НОМЛАРИ.....	190
60. Anarbaev Orzubek Rahmanovich COMPOUND WORDS AS WORD FORMATION IN THE UZBEK LANGUAGE.....	192
61. Бахтиёрӣ Тохир Бахтиёр ўғли ТИЛНИНГ АҲАМИЯТИ.....	195
62. Тожалиева Гулшаной Собировна, МИЛЛИЙ ТАРБИЯ.....	197
63. Rashidova Umida Mansurovna, Gulova Lola Salimovna, INGLIZ TILIDAGI FE'L IBORALARNI O'ZBEK TILIGA TARJIMA QILISH USULLARI.....	199
64. Жумаева Мохичехра, ИСПОЛЬЗОВАНИЕ ТЕХНОЛОГИИ ПЕДАГОГИЧЕСКИХ МАСТЕРСКИХ НА УРОКАХ	



HAJVIY SHE'RLARNING BADIY TAHLILI

Zoyirova Go'zal Ne'matovna
(BDU tadqiqotchisi)

O'zbek adabiyotida ijodkorlarning o'zining hol-ahvolini, turmush tarzini yo bo'lmasa, ijtimoiy - siyosiy jarayonga munosabatini achchiq kulgi ostida, kinoyali tarzda bayon etilgan she'rlarini ko'plab uchtarish mumkin. Bu Abdulla Avloniy, Behbudiy, Hoji Muin, Zavqiy, Muqimiy kabi adiblarimiz ijodida turli janrlarda namoyon bo'ladi. XX asrning 50-60-yillaridan tortib bugungi kun she'riyatida ham bu holni turlicha ifoda etish yo'sinida uchratish qiyin emas. Xususan, Erkin Vohidovning "Donishqishloq latifalari" ham shu yo'nalishda yozilgan asarlarning eng salmoqlisidir. "Donishqishloq latifalari"ni o'qib hamma kuladi. Vaholanki, men ularni yig'lab yozganman. Aql-idrokka zid, teskari ishlarimiz el boshiga kulfat va uqubatlar keltirib yotgani sir emas-ku", - degan edi E. Vohidov. Va u she'riyatdagi satirik kulgining eng o'tkirini yarata oldi.

O'z so'zlarini hajviy asarlarda namoyon qila oladigan ijodkorlardan yana biri - Anvar Obidjon. Borliqni ham bolalaracha, ham kattalaracha teran nigoh ila taftish eta olish, bola tili bilan katta yoshli kishi-da tushunishi murakkab bo'lgan ma'noni she'rga singdira olish noyob iste'dod. Barchamiz biladigan,

Kalamushvoy,
Kalamush,
Savoding sal
Chalamish.
Yoz desalar
"Temir" deb,
Sen yozibsan
"Kemir" deb.

She'r bir qarashda savodsiz o'quvchilar haqida yozilganga o'xshaydi. Biroq hayotda har qanday vaziyatda ham o'z foydasini o'ylab ish ko'radigan, kalamushsifat insonlar borligiga zimdan ishorani sezish ham mumkin. Kundalik turmushda shu kabi vaziyatlarning guvohi bo'lib qolsak, mana shunday hajviy she'rlar tilimizdan iboradek yangraydi. Erkin Vohidov o'z hajviyasi uchun Matmusa obrazini tanlagan bo'lsa, Anvar Obidjon Gulmat obrazi orqali hajviylariga tabiiy ohang qo'shdi.

O'zbek she'riyatida ko'plab shoirlar ijodida hajviy she'rlar uchraydi. Ammo ular Erkin Vohidov va Anvar Obidjon ijodidagi kabi yaxlit bir turkum - ketma-ket voqeiylik ko'rinishiga ega bo'lmasa-da, kitobxon ma'naviy olamiga ta'sir etish jihatidan o'ziga xos xususiyatlarga ega. Buxoro adabiy muhiti vakili Samandar Vohidov ham o'z kayfiyatini, aytmoqchi bo'lgan so'zini boshqalarga yetkazishda aynan hajviy usuldan samarali foydalana olgan ijodkorlardandir. Albatta, haqiqiy shoir o'z kechinmlarini she'riy tizimga solish jarayonida she'rxonlarning ham munosbatiga e'tibor qaratadi, ularning tushuna olishlari darajasigacha bayon qila oladi. Agar shoirlik fitrati ila tug'ilgan qalamkash bo'lsa, bu holat hech bir istisnosiz, o'z-o'zidan ro'y beradi. Samandar Vohidov o'z olamini ana shunday hech bir qoqilishlarsiz o'quvchilarga yetkaza olgan, "sukunatning shovqinlardan-da serma'no so'zlarini yurak gavhari ila tinglay olgan" shoirlardandir. Shoir she'riyatining mavzu ko'lami shu qadar kengki, har bir satri ulkan hayot sabog'ini bera oladi. U o'zining bir she'rida "She'riyat qo'rg'ondir, unga kirgali, Qalbingni kalitga aylantirsang bas", deya she'riyatni, shoirlikni faqat va faqat qalb, ko'ngil ishi ekanligini ta'kidlaydi.

Bu hovli darvozasin
Chertmoqning yo'q hojati,
Qo'lingizda she'rlarim -
Yuragim darvozasi...

Uning zavq-u dardidan xabardor bo'lmoq uchun hol so'rash shart emas, axir shoir shundoq ham yuragini qo'llarimizga berib qo'ygan. Samandar Vohidov she'rlarida o'zining ichi-yu tashini yaqqol ko'rsatib bera olgan. Uning ijodida yana shunday she'rlar borki, bu uning odamlarga muhabbatini, naqadar samimiy insonligini, aniqrog'i, hazil-mutoyibaga moyil ekanligini ko'rsatib turadi. E'tibor qaratmoqchi bo'lganimiz, shoirning hazil tariqasida yozilgan ijod namunalaridir. Bunday she'rlarda muallifning o'zi ham "hazil" degan ta'kidni keltirib o'tadi. Shulardan biri "O'xshaysan-u... aytmayman" deb nomlangan she'r. She'rda Xoliq nonvoyning ko'rgan tushi sababli xudoyi qilmoqchi bo'lib qo'y sotib olgani voqeasi hajviy yo'sinda keltiriladi. Sotib olingan qo'yning juda hurkakligidan uygacha olib kelolmayotgan chol uni "sassiq cho'chqaga o'xshar"



ekan deydi. Kampir buni eshitib, "Jannatdan chiqqan molni, Cho'chqa deb bulg'adingiz", deya endi boshqa qo'y olish kerakligini aytadi. Ammo "Harom o'lgur bunisi avvalgidan yuz battar". Nihoyat, she'riy voqea

"Tush ko'rmasdan men o'lay..."

Yo'q...

Gunohga botmayman.

Sen ham xuddi... o'shanga -

O'xshaysan-u...

aytmayman!...",

- deya yakunlanadi. Samimiy kulgi asosida yozilgan bu she'rdan o'zbek xalqiga xos soddalik, shu bilan birga e'tiqodda mustahkamlik xislatlari sezilib turadi. Maishiy turmushdagi voqealarni bunday kulgili tarzda yozish ham bir mahorat aslida. Kulish oson, biroq kulgining tag zamiriga yetish juda murakkab. Samandar Vohidovning shu yo'sindagi ijod namunalari o'ziga xos jihati shundaki, shoir ularda ko'ngil olamini band etgan mavhum hislar haqida yozmaydi. Bayon etilgan voqea kishida muallif anglagan hislardan xabardor qilmaydi, balki, o'quvchining o'zida, faqat uning o'zigagina tegishli bo'lgan tuyg'ularni paydo qiladi. Bunday she'rlarini o'qib turib, tabassum bilan birga, "eh, attang!", deb yuboradi kishi. Yuqoridagi she'rda Xoliq nonvoyning soddaligiga, bir tushni deb ovora-yu sarson bo'lganiga, vaqtini behuda narsalarga sarflayotganiga achinsangiz, shoirning "Bag'ishlov" nomli hazil she'rida, undan-da kuchliroq iztirob tuyasiz. She'rda muallif omadi chopgan shoirni "uloq tekkan chavandozga" qiyoslaydi. Ketma-ket bosilayotgan kitoblarni esa "bog'ning meva (hosil) berishiga" o'xshatadi. Ilk kitobi Onasiga, ikkinchisi Otasiga bag'ishlangan. Shoir o'quvchilar qurshovida, izzat-hurmatda. Hamma shunday shoir o'g'li bor ota-onaning bu dunyo-yu, u dunyo armoni yo'qligini alqaydi. Biroq,

Ota-ona shu payt olis qishloqda,

Mung'aygancha poylashar undan xabar.

Nigohlari o'g'il ketgan so'qmoqda,

Kitoblar-u bag'ishlovdan bexabar.

She'rning nomi nega "Bag'ishlov" ekanligi anglash qiyin emas, albatta. Ammo nega muallif uni "hazil" deya ta'kidlayapti?

Ko'zga surtib xo'rsinishar har oqshom,

O'tgan yili yozgan parcha xatini.

Bu payt shoir kitob yozar beorom,

Qalam haqin xomcho't qilar xotini...

Ko'z oldingizda o'ziga atalgan kitoblardan bexabarligicha mung'ayib yo'l qarayotgan chol-kampir qiyofasi va o'gli- shoirning omadidan kuch olib yana-da jo'shib ijod qilayotgani manzarasi paydo bo'ladi.

Dunyo tillo, zarlari bilan bizni o'ziga rom qilmay qolmaydi. Ularga mahliyo bo'lib, umrini ma'nosiz o'tkazganlar ham talaygina. Aslida shoir Samandar Vohidov buni teran anglagan holda o'zining hazil aralash satrlarida, hech bir narsa ota-ona diydori-yu, roziligidan ustun bo'la olmasligini uqtirmoqda.

Shoirning g'azal janri kabi qofiyalanish tartibida yozilgan "Qaydasan, hoy qo'shni qiz□" she'rida esa, yillar o'tib qishlog'iga qaytgan, qirq yil oldingi muhabbati yodga tushib, uni izlashga tushgan, o'sha paytlardagi anhor-u, devorlardan endilikda oshib o'tolmayotgan keksa kishining holati o'ynoqlik, to'porilik, quvlik bilan tasvirlanadi.

Tirjayib chiqqan jujuqlar "gung bobo"ning holiga,

Anglamay "bobo" atab o'ksitganin "xushtor"ni

...Balki yetgay senga ham tashrifim hangomasi,

Demagil:-Olsin Xudo, bu mo'ysafid beorni.

She'r yuzda tabassum bilan o'qilsa-da, undan armonga aylangan muhabbat iztiroblarini tuyasiz. Bunday satirik she'rlarda hazil aralash aytib qolingani asl haqiqatlar yangraydi. She'r ga'zal janri talablariga to'liq javob bermasligi haqida bosh qotirish behuda. Chunki muallifning asl maqsadi bu emasligi yaqqol ma'lum. Hozirgi davr hajviy she'rlari xos xususiyatlardan biri ham aynan shu. Bunday ifoda uslubini Anvar Obidjon ijodida ham uchratish mumkin:

Diling tortsa, balodan ham benasib qolmag'on yaxshi,

Birovdin olg'oning maqbul, birovga bermag'on yaxshi.

S.Vohidovning biz tilga olayotgan yo'sindagi she'rlari sanoqli hamda ortiqcha badiiy topilmalardan xoli bo'lsa-da, ular sodda bayon qilish uslubi va o'quvchiga baxsh etayotgan hissiyotlari ta'sir doirasining ancha kengligi bilan ajralib turadi.

Biz Samandar Vohidovning hazil she'rlarini Erkin Vohidov va Anvar Obidjon ijodidagi shu turda yozilgan she'rlarga qiyoslamochi ham, solishtirmochi ham emasmiz. Chunki ular hajm jihatidan ham, o'zida ifodalangan ma'no-mazmuni bilan ham bir-biridan tubdan farq qiladi. "Hajvchi, birinchi galda,



qoyillatib kuldira olsin, o'ylantira olsa, undan ham yaxshi", - degan edi Ne'mat Aminov. Samandar Vohidov ham uncha ko'p bo'lmagan hazil she'rlarida, shu ikki vazifani bajara olgan.

Hozirgi kun she'riyatida xalq dardi va jamiyatdagi nomunosib holatlarni hajviy yo'l orqali dadil aytish biroz oqsaganligi ham ko'rish mumkin. Faqat ijtimoiy tarmoqlardagina (norasmiy tarzda ijtimoiylashayotgan) bunday she'rlarni, to'liq she'r sifatida shakllanmagan holda uchratish mumkin. Bugun, har sohada jadal rivojlanish kechayotgan, turli-tuman fikrlar, qarashlar hukm surayotgan bir davrda hajviy lirika orqali kishilar hissiyotlarini uyg'otish, ongiga voqea-hodisalarga sog'lom munosabatni joylash adabiyot uchun biroz bo'lsa-da yengillik bergan bo'lar edi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Anvar Obidjon. Ketmagil.-T.,1985.
2. Vohidov S. Aylanadir bu dunyo .-Buxoro,2003.
3. Vohidov S. Orzuning osmoni keng.- Buxoro,2006.
4. Vohidov S. Bu bog'da bahra boqiydur.- Buxoro,2011.
5. Vohidov R. Bir nosir-u uch shoir haqida topganlarim.-Buxoro,2003.
6. Vohidov E. Tabassum.- T.,2010.
7. Jabborov N. Zamon.Mezon.She'riyat.- T.,2015.